- v) Ishlab chiqilgan lokal smeta hisob-kitoblari asosida umuman obyekt bo'yicha yig'ma smeta hisob-kitobi ishlab chiqilishi kerak.

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, qurilish sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq loyihalash me'yorlariga amal qilish zarur. Loyiha-smeta hujjatlari bo'limlarining tarkibi va mazmuni ShNQ, QMQ va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yoriy talablariga, texnik topshiriqqa, binoga loyiha hujjatlariga, poydevorlarni, tutib turuvchi va to'siq konstruksiyalarni tekshirish dalolatnomalariga, kapital ta'mirlashda qo'llaniladigan materiallar, uskunalar va konstruksiyalarga texnik hujjatlarga muvofiq shakllantirish.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi MQIM uskunalarining ishlashi uchun optimal sharoitlarni yaratishdir. Nukus shahridagi "UMS" MChJ uch qavatli ma'muriy binosining birinchi qavatida MQIM uskunalari joylashtirish uchun xonani qayta rejalashtirish.

### **1.2 Xarid amalga oshiriladigan loyihani amalga oshirish uchun asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son qarori. "Universal Mobile Systems" MChJni 2025 - 2026-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi.

### **1.3 Ishlar va xizmatlar ro'yxati**

1.3.1 Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ushbu texnik topshiriqqa muvofiq barcha zarur hujjatlarni tayyorlash va ularni alohida qismlarga ajratish:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahrida joylashgan "Universal Mobile Systems" MChJ XKM ofisi binosining 1-qavatida MQIM uskunalari uchun xonani kapital ta'mirlash bo'yicha LSHni ishlab chiqish;

- "UMS" MChJ obyektining I toifali tashqi elektr ta'minoti tizimining tashqi tarmoqlarini qurish bo'yicha loyiha-smeta hujjatini ishlab chiqish;

1.3.2 Loyihani O'zbekiston Respublikasining manfaatdor organlari bilan kelishish:

- Energonazorat
- Nukus shahri Elektr ta'minoti korxonasi
- Shahargaz
- Suvsoz



- Shahar markaziy isitish tizimi
- Ekologiya
- Maxsus aloqa xizmati
- O'zR PXX (zaruratda)
- Nukus shahri Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
- Nukus shahri ShAQBB

1.3.3 Qurilish ustidan mualliflik nazoratini olib borish xarajatlarini ishlarni olib borishning butun davri uchun nazarda tutish. Mualliflik nazorati bo'yicha xizmatlar alohida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida taqdim etiladi.

1.3.4. Ijrochi MQIM uskunalari uchun "Universal Mobile Systems" MChJ obyektining I-toifadagi tashqi elektr ta'minoti tizimining tashqi tarmoqlarini qurish va 1-qavat ichki xonalarini kapital ta'mirlash bo'yicha LSHni ishlab chiqish bo'yicha quyidagi xizmatlarni (ishlarni) bajarish majburiyatini oladi:

- O'lchash ishlari: Aniq ma'lumotlarni olish uchun buyurtmachi bilan hamkorlikda obyektning o'lchash ishlarini amalga oshirish;
- Nuqson dalolatnomasini tuzish: loyihalash topshiriq'ini tuzish uchun zarur bo'lgan ishlar hajmining batafsil ro'yxatini tuzish;
- Tekshiruv bo'yicha hisobotni tayyorlash o'tkazilgan tekshiruv natijalari, o'lchov ma'lumotlari va texnik tekshiruv tavsiyalarini hisobga olgan holda aniqlangan muammolarni o'z ichiga olgan hisobotni shakllantirish, shuningdek, tutib turuvchi konstruksiyalarni kuchaytirish bo'yicha tadbirlarni hisobga olish va h.k.
- Ishchi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish: loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur rejalar, sxemalar va hujjatlarni yaratish;
- Smeta hujjatlarini ishlab chiqish: mo'ljallanayotgan ishlar qiymatini baholash uchun batafsil xarajatlar smetasini, shu jumladan hisob-kitoblar va byudjetni baholashni tayyorlash;
- Smeta hujjatlari resurs usuliga muvofiq ShNQ me'yorlariga muvofiq joriy narxlarda tuziladi.

## **2. Ijrochiga qo'yiladigan umumiy talablar**

### **2.1 Umumiy talablar:**

- Ijrochi Shartnomani tuzish va bajarish uchun to'liq hajmda fuqarolik huquqdorligiga ega bo'lishi, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak;
- Loyihalash uchun litsenziyaga ega bo'lish:
  - qurilish obyektlarini kapital va joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlari;
  - bino va inshootlarni kuchaytirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish;
  - xavfi yuqori bo'lgan obyektlarni va potensial xavfli ishlab chiqarishlarni loyihalashtirish.
- Ijrochi ichki xonalarni kapital ta'mirlash va I toifali elektr ta'minoti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha zarur kasbiy bilim va tajribaga, resurs imkoniyatlariga (moliyaviy, moddiy-texnik, ishlab chiqarish, mehnat), boshqaruv kompetensiyasiga, tajribaga va obro'ga (ilgari bajarilgan shunga o'xshash ishlar (xizmatlar) to'g'risida mulohazalar xati mavjudligi) ega bo'lishi kerak;
- Xarid predmeti bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarga ega bo'lish;
- tugatish jarayonida bo'lmaslik (yuridik shaxs uchun) va sud qarori bilan nochor (bankrot) deb topilmaslik;
- Faoliyati to'xtatilgan va (yoki) Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mol-mulki sud, ma'muriy organ qarori bilan xatlangan shaxs bo'lmaslik;
- Ushbu Texnik topshiriq doirasida undirilishi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsizligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, o'tgan kalendar yil uchun har qanday darajadagi byudjetlarga yoki davlat byudjetdan tashqari jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lmaslik;



- Ijrochi amalga oshiriladigan ishlar (xizmatlar) ro'yxati bo'yicha hajmini va jalb qilinadigan mutaxassislarni (ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini shakllantirish asoslari) aniqlashtirgan holda axborot taqdim etishi kerak.

## 2.2. Ijrochiga qo'yiladigan majburiy talablar:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq zarur hujjatlarning mavjudligi (litsenziya, guvohnoma va boshqalar).

- Ichki xonalarni kapital ta'mirlash va I toifali elektr ta'minoti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini ko'rsatish uchun shtatda mutaxassislarning mavjudligi.

## 2.3. Ijrochi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarining qurilish-montaj ishlari bajarilishini ta'minlaydigan hajmda bajarilishi.

Loyiha-smeta hujjatlari quyidagi normativ hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak:

- EUTQ (amaldagi nashr);
- TFQ (amaldagi nashr);
- Energetika obyektlarida elektromontaj ishlarini amalga oshirishning texnik xavfsizlik qoidalari (amaldagi nashr);
- QMvaQ 2.01.02-85;
- QMQ 2.01.04-97;
- QMQ 2.01.05-98;
- QMQ 2.02.08-96;
- DAST. MXST. 12.1.005-88;
- QMvaQ 2.04.09-84;
- QMQ 2.04.17-98;
- ShNQ 4.02.67-07;
- ShNQ 2.01.02-04;
- ShNQ 2.04.09-07;
- QMQ 2.04.05-97;
- QMQ 3.05.06-97;
- YoXBH 01-002:2007;
- YoXBH 01-004:2010;
- Amaldagi boshqa qonunchilik va normativ-texnik hujjatlarga.

## 2ShYTP va DGQ o'rnatish joyini ko'zda tutish.

Barcha ZAKlarda har bir ZAKni boshqarishning 3 ta usuli nazarda tutilsin: qo'lda, avtomatik va masofadan boshqarish.

Loyihada yuqori kuchlanishli kabel liniyasini ulanish nuqtalaridan loyihalashtirilayotgan "UMS" MCHJ 2ShYTP gacha transformatorlarni o'rnatgan holda montaj qilish va ulashni nazarda tutish.

2ShYTP dan XKM binosigacha 0,4 kV kabel liniyalarini montaj qilishni ko'zda tutish.

Shahar elektr ta'minoti uzilganda, binoga kirishda DGQdan ZAK o'rnatgan holda 0,4 kV KTQ o'rnatish ko'zda tutilsin. KTQ dan QSh, QUSH, YoSh qavatlararo taqsimlash shitlarigacha bo'lgan kabel ta'minot liniyalari kabel lotoklari va qutilarida bajarilsin. Loyiha bilan barcha zarur kabel simlari ko'zda tutilsin.

Loyiha bilan yuklamalarni belgilash, yuklamalarning yig'ma jadvali elektr qabul qilgichlarning o'rnatilgan va hisoblangan quvvatlari kVt va to'liq quvvati kVA bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Qisqa tutashuv toklari hisobini bajarish, yuklamalar jadvaliga muvofiq o'rnatiladigan avtomatlarning issiqlik ajratkichlari o'rnatmalarini tanlash. O'rnatilgan avtomatlarning elektromagnit ajratgichlari o'rnatmalarini eng uzoq nuqtalardagi QT toklariga va uskunaning ishga tushirish toklariga muvofiq tanlash.

## 2.4 KTQ paneli yorug'lik indikatsiyasi va elektr o'lchov asboblari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Elektr energiyasini hisobga olish asboblari (ENHAT) alohida shitlarda loyihalanadi. Taqsimlash



shitlarini loyihalashda tok bo'yicha ta'minlovchi kabellar shitlari fazalarining yuklanish muvozanati ta'minlanishi kerak. Eng ko'p va eng kam yuklangan fazalar yuklamalarining farqi fazaning o'rtacha yuklamasidan 10...15% dan ortiq bo'lmashligi kerak.

Loyihalashtirilgan elektr uskunalar buzilmasdan ishlashini ta'minlashi, yerga ulash va chaqmoqdan himoya qilish tizimini ishlab chiqishi kerak.

Loyihada QMvaQ, DAST va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yorlari talablariga javob beradigan zamonaviy materiallar qo'llanilsin.

### 3. Ijrochiga topshiriqlar

MQIM uskunalarini joylashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri manzilida joylashgan "Universal Mobile Systems" MChJ XKM ofis binosida umumiy maydoni 78 m<sup>2</sup> bo'lgan birinchi qavatdagi xonalarni kapital ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.

3.1 Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda Ijrochi binolardagi quyidagi ish turlarini hisobga olishi shart:

- Alyuminiydan tayyorlangan deraza o'rinlariga qo'yiladigan talablar;
- Olovbardosh metall eshiklar;
- Armatura bilan 10 mm sementli pol tortmasi (Tex. Tekshiruvga). Lenoleumdan tayyorlangan (olovga chidamli, yonmaydigan, markasi loyihada ko'rsatilgan) MQIM uskunolari uchun pol qoplamasi, shuningdek, kabel-menejment quyi tizimini bajarish;
- Xonalarning devorlari va to'siqlarini g'ishtdan qurish;
- Devor va to'siqlarni pardoqlash - Yuqori sifatli suvoq, shpatlyovka, keyinchalik suv-emulsiya bo'yog'i bilan bo'yash;
- Asosiy va avariya yoritish - elektr energiyasini kam sarflagan holda yong'inga qarshi ishlab chiqilgan LED turidagi yoritgichlar;
- Loyihada binoning birinchi qavatidagi MQIM uchun mo'ljallangan xonaga asosiy va avariya yoritgichlarini o'rnatish, shuningdek, avariya chiqish joylarini ko'zda tutish;
- Apparat xonasi va AKB xonasiga kiruvchi-chiquvchi ventilyatsiya tizimini yong'inni o'chirish tugagandan so'ng yonish mahsulotlari va gazni chiqarib tashlash uchun so'rish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak, u yong'indan keyin himoyalalanayotgan xonani soatiga kamida 3 marta havo almashtirish hajmida tozalashni ta'minlashi kerak;
- Gaz-tutunni chiqarib tashlash tizimlarining havo quvurlari izolyatsiya (kauchuk, rezina, plastmassa va boshqalar) bilan qoplangan bo'lishi kerak;
- Ventilyatsiya tizimining kiruvchi va chiquvchi havosini havo quvurlari tarmog'i bo'ylab taqsimlash va keyinchalik havo taqsimlagichlar orqali tarqatish;
- Suv ta'minoti - konditsionerlash tizimining texnologik ehtiyojlari uchun soatiga kamida 4 litr suv sarfi bilan suv ta'minotini nazarda tutish kerak;
- Gazli yong'in o'chirish va avtomatik yong'in signalizatsiyasi bo'yicha ishlar - Kommutator xonasi QMvaQ QM-512-78 ning 3-bo'limi va SME 03.03-2003 talablariga muvofiq loyihalashtiriladigan avtomatik gazli yong'in o'chirish (AGO'Q) va yong'in signalizatsiyasi qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. O't o'chirish moddasi MGP turidagi yuqori bosim modullariga to'ldirilishi kerak;
- AGO'Q tizimini yoqish tutun paydo bo'lishiga javob beradigan yong'inni erta aniqlash datchiklaridan amalga oshiriladi;
- Loyihalashtirish bosqichida qabul qilinadigan texnik yechimlar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan sanitariya-gigiyena, ekologiya, yong'inga qarshi va boshqa me'yorlar talablariga muvofiq bo'lishi hamda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarga rioya qilgan holda obyektдан odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz foydalanishni ta'minlashi kerakligi LSHda ko'rsatib o'tilsin;



- Yerga ulash konturini bajarish - O'z DSt 2875:2014 ga muvofiq alohida texnologik yerga ulash konturini hisoblash. Yerga ulashning RE va FE bosh yerga ulash shinalari orasidagi potentsiallarni tenglashtirish tizimi uchun hisob-kitobni amalga oshirish va butlovchi qismlarni ko'rsatish;

- PE (Protective Earth) va FE (Functional Earthing) yerga ulashlar uchun oraliq yerga ulash shinalarini (OYeSh) tashkil etish va ularni binoning 1-qavatida joylashtirish. Himoya va texnologik yerga ulagichlarni o'rnatish, shuningdek ular orasidagi potentsiallarni tenglashtirish ETQ va O'z DSt 2875:2014 ga muvofiq amalga oshirilsin. PE va FE zaminlashlarning alohida konturlari tashkil etilishi kerak. Yerga ulagichlarning gruntidagi eng yaqin nuqtalarigacha bo'lgan masofa 15 m dan kam bo'lmazligi kerak. Yerga ulash konturlarining tokning tarqalishiga qarshiligi 4 Om dan oshmasligi kerak. Konturlar orasidagi potentsiallarni tenglashtirib tashkil etishni gruntida O'z DSt 2875:2014 ga muvofiq bajarish;

- Loyihada DGQ uchun maydonchani aniqlash - beton maydonchani, shuningdek, atmosfera yog'inlaridan himoya qilish uchun soyabon qurishni nazarda tutish;

- Loyiha bilan 2 ShKTP, RQKQ quvvatini aniqlash;

- Loyiha bilan DGQ quvvatini aniqlash;

- DGQ joylashadigan joyni loyihada belgilash, Nukus shahar AQBB bilan oldindan kelishish;

- Tashqi va ichki muhandislik elektr ta'minoti tarmoqlari - binoning birinchi qavatidagi telekommunikatsiya uskunalari va muhandislik tizimlarining elektr ta'minoti.

- Konstruktiv yechimlar - loyihada binoning orqa tomonida yaxlit yuk tushiruvchi ramani o'rnatishni ko'zda tutish. Ko'zda tutilgan bo'shatish ramalari konditsionerlarning tashqi bloklarini o'rnatish uchun zarur. Binoning orqa tomonidagi bo'shatish ramasi konditsionerlarning tashqi bloklari gabarit va og'irlik parametrlaridan kelib chiqqan holda ko'zda tutilsin va loyihalash bosqichida aniqlansin.

- Yuk tushirish ramasining poydevorini o'rnatiladigan uskunaning massasidan kelib chiqqan holda hisoblash kerak.

3.2. KNBT (kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimi) ga talablar:

- Qo'riqlash signalizatsiyasi quyi tizimi - tizim binoning texnologik xonalarini qo'riqlash signalizatsiyasi vositalari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Xonalar ishdan tashqari vaqtda qo'riqlashga topshirilishi va xonalar uchun mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan qo'riqlashdan olinishi kerak;

- kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimini ko'rsatish - xonalar ichidagi xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, texnologik xonalarining uskunalariga jismoniy kirishni cheklash maqsadida KNBT quyi tizimining mavjudligini ta'minlash zarur;

- KNBTning texnik vositalari obyektning barcha avtozallari va texnologik xonalarini eshiklarining kontrollerlarini o'z ichiga olishi kerak:

• Identifikatsiya va autentifikatsiya: biometriya, kombinatsiyalangan rejimlar;

• O'tish nuqtalarini boshqarish: eshiklar;

• Hodisalar jurnalini yuritish: o'tish joylari, ruxsatsiz kirishga urinishlar, avariya hodisalar;

• Hisobotlarni shakllantirish;

• Tugun (24/7) ishlash, uskunaning ishonchliligi, chang va namlikdan himoya (IP), server bilan aloqa uzilganda avtonom rejimni qo'llab-quvvatlash, mavjud IT infratuzilmasi bilan moslik;

• Videokuzatuv, qo'riqlash signalizatsiyasi bilan integratsiya qilish imkoniyati.

- Binolarga kirish Face ID texnologiyasi orqali amalga oshirilishi kerak;

- Yetkazib berilayotgan KNBT yechimi Buyurtmachining mavjud uskunalarini bilan mos kelishi kerak;

3.3. VKT (Videokuzatuv tizimi)ga qo'yiladigan talablar:

- Videokuzatuv tizimini amalga oshirish - IP avtomatlashtirilgan videokuzatuv tizimi IP videokuzatuv kameralarining taqsimlangan tarmog'i asosidagi videonazorat tizimi hisoblanadi;



- Majburiy videokuzatuv zonalari: barcha kirish/chiqish joylari, yo'laklar.
- kirish cheklangan zonalar: mashina zallari, kross va telekommunikatsiya shkaflari zonalari, server peshtaxtalari.
- Loyihada kameralarga qo'yiladigan talablar nazarda tutilsin
- Yetkazib beriladigan VKT yechimi Buyurtmachining mavjud uskunalari bilan mos kelishi kerak;

#### **4. Loyiha-smeta hujjatlari tarkibi**

Ijrochi tomonidan obyektни loyihalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish va Buyurtmachi bilan kelishish.

4.1 Obyekt bo'yicha LSHni ishlab chiqish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- I jild - umumiy tushuntirish xati (UTX), qurilish-montaj ishlarini (QMI) bajarish uchun mehnat sarfi va vaqtni ko'rsatgan holda qisqartirilgan ko'rinishdagi qurilishni tashkil etish loyihasi (QTL);
- II jild - quyidagi bo'limlar uchun loyiha (LI) ishlab chiqish: arxitektura va konstruktiv yechimlar (AYe, TBK, MK), isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash (IVK), elektr uskunalari (EU), 0,4 kV kuchlanishli elektr ta'minoti (ET-0,4Kv), ikkinchi yuqori kuchlanishli kirish liniyasini o'tkazish bilan 10 kV kuchlanishli elektr ta'minoti (ET-10Kv), shuningdek, mavjud 160 kVA quvvatli transformatorni hisobiy transformatorga almashtirish loyihasi. Yong'in-qo'riqlash signalizatsiyasi, lokal tarmoqlar va videokuzatuv. Elektr ta'minotining tashqi va ichki muhandislik tarmoqlari, oqimli-so'ruvchi ventilatsiya;

- III jild - smeta hujjatlari.

4.2. Qidiruv va o'lchash ishlarining butun majmuasini loyihalash uchun zarur bo'lgan hajmlarda o'tkazish.

4.3. Obyekt bo'yicha LSHni ishlab chiqish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 2 ShKTP, RQKQ va DGQni qayta qurish va joylashtirish loyihasi tarkibini belgilash;
- 2 ShKTP tashqi qurilmani ko'zda tutishi kerak. Panellar korpusi yonmaydigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi, devorlar va 2ShKTPning konstruktiv bajarilishi Buyurtmachi bilan kelishilgan bo'lishi kerak;
- TQ-6-10kV loyihada podstantsiyada yuqori kuchlanishli yacheykalarni o'rnatishni nazarda tutish, shuningdek, TShga muvofiq boshqa talablarni bajarish;
- Monoblok har bir transformator uchun 3 ta seksiyadan (kirish, transformator va seksiya) iborat bo'lishi kerak. Kuch transformatorlari blokida darvozalardagi jalyuzali panjaralar orqali shamollatish ko'zda tutilsin. Asosiy elektr zanjirlar sxemalariga muvofiq, YuKTQ (yuqori kuchlanishli taqsimlash qurilmasi) va PKTQ (past kuchlanishli taqsimlash qurilmasi) bo'linmalari ajratilsin. PKTQning kuch transformatorlari bilan seksiyali ulanishini loyiha bilan belgilash va Buyurtmachi bilan kelishish. Kabellar kesimini loyiha bilan belgilash. PKTQ da ZAK qurilmasini ko'zda tutish. Loyihada 2ShKTP ning barcha qismlarida shamollatish qurilmasi ko'zda tutilsin. Taqsimlash qurilmasining ishlab chiqaruvchisini Buyurtmachi bilan kelishish. Loyiha bilan yerga ulash konturi qurilmasi bilan yerga ulash ko'zda tutilsin. Transformatorlarning neytrali - yerga zich ulangan;
- Loyihani kabel trassasi zonasidagi joriy geologik vaziyatga bog'lash uchun muhandislik-geologik qidiruvlar va topografik qidiruvlar o'tkazish;

- ART II (Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i) va obyektни qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish uchun ruxsatnoma olish, 2 ShKTP, RQKQ va DGQni o'rnatgan holda tashqi va ichki energiya ta'minoti trassasi loyihasini bajarish, trassa bo'yicha barcha zarur kelishuvlarni olish: Nukus shahar arxitektura va qurilish boshqarmasidan, energiya ta'minoti tashkilotidan; kommunikatsiya egalari va barcha manfaatdor tashkilotlar bilan. Loyiha-smeta hujjatlarini "O'zenergoinspeksiya" DI bilan kelishish.



4.4. Ijrochi vakolatli organ (Shaffof Qurilish)da LSHni ekspertizadan o'tkazish majburiyatini hamda ijobiy yig'ma ekspert xulosasini olish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. LSHni ishlab chiqish bo'yicha shartnomada mualliflik nazoratini o'tkazish qiymatini qayd etish.

4.6. Loyiha hujjatlari bo'limlarining tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasidagi amaldagi qonunchiligiga muvofiq, qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq, mahalliy iqlim sharoitlarini, seysmik vaziyatni va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan yong'inga qarshi, sanitariya-gigiyena, ekologik va boshqa me'yorlar talablarini hisobga olgan holda shakllantirilsin.

4.7. LSHni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuniga muvofiq barcha ekologik talablarni hisobga olish.

#### **5. Qo'shimcha talablar**

5.1 Yopiq texnik yoki tijorat ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati tufayli ishlarni bajarishning har qanday bosqichida maxfiylikka rioya qilish majburiyati.

5.2 Tadqiqot obyekti va u bo'yicha olingan natijalarga tegishli barcha ma'lumotlarga bo'lgan mualliflik huquqi "UMS" MChJga tegishli intellektual mulk sifatida huquqiy himoyalangan holda tegishli bo'ladi.

5.3 Obyekt tegishli ruxsat cheklovlari bilan rejimli hisoblanadi.

5.4 Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga taalluqli barcha ishlar Buyurtmachi bilan oldindan yozma ravishda kelishilishi kerak.

#### **6. Ishlarni bajarish va texnik hisobot materiallarini berish muddatlari**

Ijrochi "Universal Mobile Systems" MChJ XKM ofisi binosining 1-qavatida MQ IM uskunalarini joylashtirish maqsadida ichki xonalarni kapital ta'mirlash, shuningdek I toifali tashqi elektr ta'minoti tarmog'ini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishi va ishlarni bajarish boshlangan sanadan boshlab 60 kalendar kundan ko'p bo'lmagan muddatda ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarining ijobiy ekspertizasini olishi kerak.

LSH bo'limlari yakuniy ishlab chiqilgunga qadar Buyurtmachi bilan oldindan kelishib olinadi.

#### **7. Hujjatlar bo'yicha talablar**

Ijrochi belgilangan tartibda kelishilgan loyiha-smeta hujjatlarini qog'oz shaklida uch nusxada taqdim etishi shart. Bundan tashqari, elektron tashuvchida quyidagi ko'rinish va formatlarda bir nusxani taqdim etish zarur:

- tahrirlanadigan formatdagi loyiha hujjatlari (matn qismi) - \*.doc (Word 2010), \*.pdf, \*.Exsel\*;

- tahrirlanadigan formatdagi grafik hujjatlar (chizmalar va sxemalar) \*.dwg (AutoCAD 2007).

#### **8. Kafolatlarning hajmi va/yoki taqdim etish muddati bo'yicha talablar**

Ijrochi bajarilgan ishlarning sifati ShNQ, QMQ va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda texnik topshiriq va Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lishini kafolatlashi kerak.

Qurilish ishlarini bajarish jarayonida LSHda hisobga olinmagan yashirin nuqsonlar aniqlangan taqdirda loyihachi buyurtmachining vakillari bilan birgalikda LSHni ko'rib chiqishi, qarorlar berishi va unga o'zgartirishlar kiritishi shart. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Ijrochi hisobidan kiritiladi. Pudratchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari yakunlangunga qadar LSHning kafolat muddati.

#### **9. Ilovalar ro'yxati**



№	Ilova nomi
1.	Binoning 1-qavatida mo'ljallanayotgan uskuna va kommunikatsiyalarni joylashtirish sxemasi
2.	Tex. Tekshiruv

#### Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

№	qisqartma	qisqartma rasshifrovkasi
1	Buyurtmachi	"UMS" MChJ
2	Ijrochi	Texnik topshiriqqa muvofiq xizmat ko'rsatish ishlarini amalda bajaradigan va amalga oshiradigan shaxs
3	MQIM	Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi
4	RFID	Radio-Frequency Identification. Radioc chastota bo'yicha identifikatsiyalash
5	DGQ	Dizel-generator qurilmasi
6	EN1081	Yevropa standartlashtirish qo'mitasi tomonidan nashr etilgan standart (CEN)
7	LSH	Loyiha-smeta hujjatlari
8	ShKTP	Shahar komplekt transformator podstantsiyasi
9	RQKQ	Reaktiv quvvat kompensatsiyasi qurilmalari
10	PE	Protective Earth. Himoyaviy yerga ulash
11	FE	Functional Earthing. Funktsional yerga ulash

#### 10. Xizmat ko'rsatishda javobgarlikni taqsimlash matrisasi

Texnik xizmat ko'rsatish	Ijrochi	Buyurtmachi
Texnik topshiriqni tasdiqlash	A	R
Ijrochini tanlash bo'yicha tashkiliy tadbirlar		R
Buyurtmachi maydonini tekshirish	R	C
"Universal Mobile Systems" MChJ binosining birinchi qavatidagi ichki xonalarni kapital ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish	R	A
"UMS" MChJ obyektining I toifali tashqi elektr ta'minoti tizimi tashqi tarmoqlarini qurish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish	R	A
Ijro hujjatlari to'plamini tayyorlash	R	I
Bajarilgan ishlarni nazorat organlariga topshirish va qabul qilish	R	A

*R (om angl. Responsible) – bevosita ijrochi;*

*A (om angl. Accountable) – ijrochining ishini boshqaradigan mas'ul shaxs;*

*C (om angl. Consulted) – maslahatchi (mutaxassis yoxud aniq qarorlar qabul qilingunga qadar mas'ul shaxs yordamga murojaat qiladigan soha bo'yicha ekspert);*

*I (om angl. Informed) – kuzatuvchi, xabardor qilinadigan shaxs (vazifa bajarilishining borishi (yoki natijalari) to'g'risida xabardor qilinishi lozim bo'lgan shaxs)*

**Ishlab chiqildi:**

KTvaSPL guruhi  
mutaxassisi




imzo

A.A. Lim



**Kelishildi:**

KTvaSPR bo'limi boshlig'i

  
\_\_\_\_\_

M.S.Karabayev

imzo


Bosh energetik o'rinbosari

  
\_\_\_\_\_

Ya.S.Karabayev

imzo

Tarmoqni rivojlantirish  
departamenti direktori

  
\_\_\_\_\_

V.Yu. Say

imzo


Tarmoqdan foydalanish  
departamenti direktori

  
\_\_\_\_\_

B.X. Usmanov

imzo

Loyihalarni boshqarish  
departamenti direktori

  
\_\_\_\_\_

N.Sh. Saliyev

imzo